

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA SHAFFOF ISHLASHGA ZAMIN YARATADIGAN TIZIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-sentabr kuni qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda bu soha tarkibiy jihatdan isloh qilinib, samaradorlikni oshirish choralari ko‘rildi. Paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratildi. 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etildi. 1 milliard dollarlik 1 ming 500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Lekin qishloq xo‘jaligida hamon yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori. Yetishtirilgan mahsulotning hammasi ham hisobotlarda qayd etilmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foizni tashkil etmoqda.

Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ko‘tarilgan edi. Davlatimiz rahbari bu borada dehqon va fermerlarga qulaylik yaratish, soliq yukini yengillashirish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatma bergandi.

Shunga muvofiq, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, malakali xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida qishloq xo‘jaligini “soya”dan chiqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko‘ra, kelasi yil 1-yanvardan boshlab, qishloq xo‘jaligi korxonalari dehqon va fermerlarga o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini (g‘alla va paxtadan tashqari) sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘i nol stavkada bo‘ladi.

Shu bilan birga, mahsulotni yetishtirishda urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i, transport, elektr kabi xarajatlar uchun hisobga olingan QQSni qaytarib berish amaliyoti ham saqlanib qoladi.

Natijada fermer va dehqonlar ixtiyorida yiliga 300 milliard so‘m mablag‘ qoladi, yana 400 milliard so‘mlik soliqni qaytarib olish imkoniyati bo‘ladi.

Umuman, bu yengilliklar soha vakillarining shaffof ishlashiga turki beradi, joylarda yirik sanoatlashgan plantatsiyalar va qayta ishlash korxonalarining ko‘payishiga mustahkam zamin yaratadi.

Mutasaddilarga bu yangi tizimni dehqon va fermerlarga tushuntirib, samarali yo‘lga qo‘yish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

Xalqaro hamkorlik



YANGI O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI SHHT MAYDONIDA O‘ZARO ISHONCHNI MUSTAHKAMLAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 30-avgust — 3-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Tashrif doirasida Tyanszin shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 25-yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi sammit bo‘lib o‘tdi. Ularda Prezidentimiz tashkilot doirasida va xalqaro miqyosdagi global masalalar yuzasidan qator muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Bugun SHHT Yevrosiyaning bepoyon mintaqasidagi turli siyosiy tuzumlar, tarixiy va madaniy an‘analari, iqtisodiy taraqqiyot

darajasiga ega davlatlarni birlashtirib, uyg‘un hamjihatlikda yashash va o‘zaro manfaatli hamkorlik g‘oyasining hayotiylikni namoyon etmoqda.

SHHT tashkilot topganidan buyon doim o‘zaro ishonch va manfaat, sivilizatsiyalar xilma-xilligiga hurmat hamda hamkorlikda rivojlanishga asoslangan “Shanxay ruhi”ni ilgari surib kelmoqda.

Tashkilot mojarolarga qo‘shilmaslik,

qarama-qarshilikka yo‘l qo‘ymaslik va uchinchi tomonlarga qarshi qaratilmaslik g‘oyalarni faol ravishda ilgari suradi hamda amalga oshiradi. U katta va kichik davlatlarning to‘liq teng huquqliligini ta‘minlash, konstruktiv maslahatlar orqali konsensusga erishish, shuningdek, muloqot va hamkorlik orqali tinchlikni qaratish tarafdori hisoblanadi. Aynan shu omil SHHTning jozibasi va kuch-g‘ayrati manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Tyanszin sammitida Prezidentimiz tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar mazmun-mohiyatini ommalashtirish hamda keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hamkorligida “SHHT amalda: Yangi O‘zbekiston tashabbuslari” mavzusida davra subhati tashkil etildi.

▶ Davomi 2-betda

NUKUS – QORAQALPOG‘ISTONDAGI ISLOHOTLAR MARKAZI



Aholi va jamiyat osoyishtaligi, farovonligi bilan bog‘liq har qanday masalaga katta yoki kichik deb qarash kerak emas. Bunday qarash e‘tiborsizlik, “erta-indin ko‘raman” qabilidagi bepisandlikni keltirib chiqaradi. Aytaylik, rahbar uchun kichik buyulgan muammo murojaat bilan kelgan fuqarolar uchun “hayot-mamot” masalasi bo‘lishi mumkin. Har bir insonning ishi, turmushida o‘ziga yarasha muammolari bor. Uni hamjihatlikda samarali hal etish talab etiladi.

Obod manzillar

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, har bir hokim hududidagi, vazirlar esa tarmog‘idagi imkoniyat va xavflarni oldindan ko‘ra bilib, proaktiv, ya‘ni topshiriq kutmasdan, o‘zi tashabbus ko‘rsatib ishlashga o‘tishi shart. Eng muhimi, aholi va biznes bilan muloqotni yanada kuchaytirib, ular so‘rayotgan masalalarni tezda hal qilib berish rahbarlarning asosiy vazifasi bo‘lishi zarur. Haqiqatan, o‘z ishiga chin dildan yondashgan har qanday rahbar hududidagi muammolarni yuqoridan topshiriq kutib o‘tirmasdan bartaraf etish yo‘llarini qidirishi kerak.

Tahlilimiz bo‘yicha so‘nggi paytlarda murojaat qiluvchilar soni bir oz kamaydi. Demak, insonlarning yaxshi, hayotdan rozi bo‘lib yashashida hissamiz bor.

Imkoniyat o‘z-o‘zidan yaratilmaydi

Nukus — yangi imkoniyatlar, yangi brendlar, yangi ish o‘rinlari, zamonaviy tibbiyot va ta‘lim maskanlari mo‘l shahar. Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari, xalqaro hamkorlik dasturlari, ijtimoiy obyektlar qurilishi — bularning barchasi inson qadriini yuksaltirish, uning hayotini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu ma‘noda, Nukusni Qoraqalpog‘istondagi islohotlar markazi, transformatsiya va taraqqiyotning real ifodasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

▶ Davomi 3-betda

Ortga qaytmas yo‘l

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida “Bozor islohotlari va O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonlari yanada jadallashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun senatorlar tomonidan qizg‘in muhokama qilinib, bir ovozdan qabul qilindi. Keng jamoatchilik, mutaxassislar, ekspertlar buni ijobiy, JST sari tashlangan dadil qadam o‘laroq qabul qilmoqda.



JAHON SAVDO TASHKILOTI SARI MUHIM QADAM

Ma‘lumki, O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida, hali uzoq 1994-yildayoq JSTga a‘zo bo‘lish uchun ariza topshirgan edi. Ammo turli sabablarga ko‘ra bu masala ortga surildi.

2017-yilga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur masalani yana kun tartibiga qo‘ydi va ishlar yangidan boshlanib ketdi. Ketma-ket qarorlar, farmonlar qabul qilindi. Mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasining davlat boji to‘g‘risida”, “Elektro energetikasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Prezidentimizning yurtimizning JSTga a‘zo bo‘lishini tezlashtirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlari boshlangan harakatlarni, ta‘bir joiz bo‘lsa, yangi qon bilan ta‘minladi.

Darhaqiqat, davlatimizning JSTga a‘zoli masalasi ko‘pchilikning diqqat markazida turibdi.

▶ Davomi 3-betda

BARQAROR, XAVFSIZ, FAROVON DUNYODA YASHASH ISTAGI


MAMLAKATIMIZDAGI SA‘Y-HARAKATLARNING USTUVOR YO‘NALISHIGA AYLANDI

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida ko‘plab dolzarb masalalar qatori issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalarida yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanishni to‘liq taqiqlash chora-tadbirlari ham ko‘zda tutilgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, joriy yil 1-sentabrdan ushbu tartib kuchga kirdi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta‘minlash uchun har bir yoqilg‘i manbaining o‘z o‘mi bor. Ammo bu jarayonda tabiatga ziyon yetkazadigan vositalardan foydalanish inson salomatligi va ekologik musaffolikka, albatta, salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Ana shunday zararli vositalardan biri bo‘lgani tufayli mazutni yoqish ko‘pgina davlatlarda taqiqlangan.

▶ Davomi 2-betda

Xotira



E‘TIQODI YAXSHILIK BO‘LGAN INSON

6



Xalqaro hamkorlik

YANGI O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI SHHT MAYDONIDA O‘ZARO ISHONCHNI MUSTAHKAMLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Oliy Majlis Senati a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va qo’mita xodimlari, 10 dan ortiq oliy ta’lim muassasasi professor-o’qituvchilari, olimlar, soha mutaxassislari, keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan tashabbuslarga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, soha mutaxassislari va olimlarning SHHT institutdari samaradorligini oshirish va uni Global Janub davlatlari hisobiga kengaytirish, Yadro xavfsizligi bo’yicha deklaratsiya qabul qilish, Ichki ishlar vazirlari kengashi faoliyatini qayta tiklash, 2030-yilgacha gijohvandlikka qarshi kurash dasturini tayyorlash borasidagi tashabbuslar xususida fikr-mulohazalari tinglandi.

Tadbirida so’zga chiqqanlar SHHTning siyosiy asoslarini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirish, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, soha mutaxassislari va olimlarning SHHT institutdari samaradorligini oshirish va uni Global Janub davlatlari hisobiga kengaytirish, Yadro xavfsizligi bo’yicha deklaratsiya qabul qilish, Ichki ishlar vazirlari kengashi faoliyatini qayta tiklash, 2030-yilgacha gijohvandlikka qarshi kurash dasturini tayyorlash borasidagi tashabbuslar xususida fikr-mulohazalari tinglandi.

Ta’kidlanganidek, shu kungacha mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning asosiy qismi siyosiy, iqtisodiy, innovatsion va xalqlararo hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 2022-yilda Samarqandda bo’lib o’tgan sammit esa SHHT faoliyatidagi muhim bosqichlardan biri sifatida 40 dan ortiq qaror, kelishuv, dastur va konseptual hujjat qabul qilinishi bilan ahamiyatli.

— Prezidentimiz madaniy aloqalarni yanada chuqurlashtirish va xalq diplomatiyasi institutini kuchaytirish SHHT doirasidagi uzoq muddatli sheriklikning muhim omili ekaniga alohida e’tibor qaratdi, — deydi O’zbekiston Milliy universiteti prorektori Raima Shirinova. — Xususan, SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan “SHHT universiteti” onlayn kampusini tashkil etish, talabalar va yosh mutaxassislar o’rtasida tanlov hamda olimpiadalar o’tkazish kabi tashabbuslar ta’lim, ilm-fan va texnologiyalar almashinuvini jadallashtirishga muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o’z navbatida, gumanitar almashuvlarni rivojlantirish hamda xalqlarimizni bir-biriga yanada yaqinlashtirishga kuchli turtki beradi.

Shuningdek, “Sayyohlik yo’lagi” va “Tibbiyot turizmi alyansi” loyihalarini amalga oshirish kabi masalalar SHHT doirasida do’slik va ahillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

SHHTga a’zo davlatlar transport-logistika sohasida ham yurtimizning asosiy



“O‘zbekiston tashabbuslari SHHT a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlab, “Shanxay ruhi”ning amaldagi ifodasi sifatida dunyo hamjamiyatiga muhim signal yubormoqda. Xususan, yadro xavfsizligi, ekologik barqarorlik, transport va savdo sohasidagi loyihalar, ta’lim va madaniy almashinuvlar keng qamrovli hamkorlikning barqaror asosini yaratmoqda.

hamkorlaridir. Tashkilot hamkorlari bilan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish tranzit salohiyatini kengaytirish va real sektorga investitsiyalarni jalb etishga zamin yaratmoqda.

Bugun O’zbekistonda SHHT mamlakatlari kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan 7,5 mingdan ortiq kompaniya mavjud, bu yurtimizdagi barcha xorijiy korxonalarning yarmidan ortig’ini tashkil etadi.

O’zbekiston uchun SHHT nafaqat tashqi siyosat maydoni, balki milliy manfaatlarini amalga oshirish vositasi hamdir. Mamlakatimizning mazkur tashkilotdagi ishtirokini tasodifiy tanlov sifatida baholash mumkin emas. Bu xavfsizlikni ta’minlash, iqtisodiy o’sish va barqaror taraqqiyotga erishishga qaratilgan strategik qaror hisoblanadi.

Tadbirida ekspertlar, soha mutaxassislari va olimlar tomonidan savdoni soddalashtirish tartib-taomillari to’g’risidagi bitimni imzolash, strategik materiallar bo’yicha mintaqaviy markaz, energetika konsorsiumi, venchur kompaniyalar va jamg’armalar tarmog’i hamda maxsus elektron investitsiya portalini tashkil etish, Shimol — Janub va Sharq — G’arb yo’nalishlarida transport-tranzit yo’laklarini rivojlantirish, SHHT yagona transport makonini shakllantirish va uni “Bir makon, bir yo’l” loyihasi bilan uyg’unlashtirish kabi taklif va tashabbuslar ham atroflicha muhokama etildi.

— SHHT nafaqat iqtisodiy, balki “Shanxay ruhi”ni amaliy ifoda etishga qaratilgan xalq diplomatiyasi, madaniy, ta’lim va turizm sohasidagi almashinuvlarni rag’batlantiruvchi noyab xalqlararo aloqalar loyihalarini orqali yanada kuchli bo’lib bormoqda, — deydi

O’zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi direktori Qobiljon Sobirov. — Tyanszin sammiti O’zbekistonning mintaqaviy va global masalalardagi faol pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi. O’zbekiston tashabbuslari xalqaro maydonda keng qo’llab-quvvatlanayotgani mamlakatimiz nufuzining ortib borayotganidan dalolat beradi. O’zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan taklif va g’oyalarni tashkilotning siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo’nalishlardagi hamkorligini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Shu bilan birga, ular nafaqat mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikka, balki umumiy Yevroosiyo makonida uzoq muddatli tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

O’zbekiston tashabbuslari SHHT a’zolari o’rtasidagi o’zaro ishonchni mustahkamlab, “Shanxay ruhi”ning amaldagi ifodasi sifatida dunyo hamjamiyatiga muhim signal yubormoqda. Xususan, yadro xavfsizligi, ekologik barqarorlik, transport va savdo sohasidagi loyihalar, ta’lim va madaniy almashinuvlar keng qamrovli hamkorlikning barqaror asosini yaratmoqda.

Shu ma’noda, yangi O’zbekiston tashabbuslari SHHT doirasida nainki amaliy samaradorlikni oshirish, balki tashkilotning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Ushbu tashabbuslarning izchil ro’yobga chiqarilishi mintaqaviy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirib, xalqlarimizga farovonlik, taraqqiyot va barqaror kelajakni taqdim etadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SIYOSAT



Nuqtayi nazar

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA YANGI STRATEGIK BOSQICH

Xitoy — O‘zbekistonning hayot sinovidan o‘tgan ishonchli hamkori. Xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar Buyuk ipak yo‘li tarixi bilan chambarchas bog‘langani holda milliy qadriyat va an‘analimiz jahon madaniyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan, savdo aloqalarimiz dunyo ahliga o‘z davrining noyob buyumlarini taqdim etgan.

So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Bunda, shubhasiz, mamlakatlarimiz yetakchilari o‘rtasidagi samimiy birodarlik rishtalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu yil 2-sentabr kuni Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin o‘rtasidagi muzokaralar ikki davlat munosabatlari tarixida muhim bosqich bo‘ldi.

Uchrashuvda nafaqat ikki tomonlama hamkorlik masalalari, balki mintaqaviy va global siyosiy jarayonlar doirasidagi istiqbolli



yo‘nalishlar ham muhokama qilindi. Bu esa ikki davlat munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgani, ularning ahamiyati esa ikki mamlakatdan tashqarida — butun Markaziy Osiyo va jahon siyosati miqyosida sezilarli ekanini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy barqarorlik va o‘zaro ishonch tamoyillari asosida mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbarining “Yagona Xitoy” siyosatini qo‘llab-quvvatlashi, terrorizm, ekstremizm hamda separatizmga qarshi kurashda Xitoy bilan hamkorlikni tasdiqlashi mamlakatimizning mintaqaviy xavfsizlikda mas’uliyatli sherik sifatidagi mavqeiini ko‘rsatadi. Bu pozitsiya nafaqat ikki davlat munosabatlari, balki Shanxay hamkorlik tashkiloti va “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi muloqot uchun ham strategik ahamiyatga ega.

Tashrif doirasida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi bilan uyg’unlashtirish bo’yicha imzolangan dastur mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g’oyat muhim. Bu hujjat nafaqat iqtisodiy integratsiyani, balki transport, infratuzilma,



Dilmurod ORTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

sanoat va investitsiya sohalaridagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, O‘zbekiston uchun mintaqaviy transport yo‘laklarida muhim hudud sifatida o‘z mavqeiini mustahkamlash, Xitoy uchun esa Markaziy Osiyo bilan aloqalarni yanada chuqurlashtirish imkoniyatidir.

Muzokaralarda eng ko‘p e’tibor qaratilgan yo‘nalishlardan biri iqtisodiy hamkorlik masalasi bo‘ldi. 2024-yilda mamlakatlarimiz

o‘rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 14 milliard dollardan oshdi. Joriy yilda esa yana 23 foiz o’sdi. Yaqin yillarda bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Xitoyning 60 milliard dollarlik loyihalar portfelini va ularning turli sohalarga tatbiq etilishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, “yashil” energetika va raqamli iqtisodiyotning tez sur’atda rivojlanishiga turtki bermoqda.

Uchrashuvda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi ham faol rivojlanmoqda. O‘zaro madaniy markazlari tashkil etilishi, Xitoy milliy muzeyida O‘zbekistonning ishtirok etishi, 2027-yilda Shanxay va Pekinda milliy san’at ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejasini xalqlarimiz o‘rtasidagi do’slik va ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Pekindagi muzokaralarda xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi. BMT, SHHT va “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi muvofiqlashtirish nafaqat davlatlarimiz manfaatlarini, balki mintaqaviy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston bu jarayonda faol ishtirok etib, mintaqadagi asosiy integratsiya jarayonining tashabbuskori sifatida mavqeiini kuchaytirmoqda. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish sohasida hamkorlikni mustahkamlash, Samarqand viloyati va Tyanszin shahri o‘rtasida sheriklik munosabatlari o‘rnatish ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni mahalliy darajada ham mustahkamlaydi. Bu jarayon mintaqalar kesimida ham investitsiya, ham tajriba almashuvi jarayonlarini kengaytirishi mumkin.

Umuman olganda, Pekindagi uchrashuv O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarining yangi strategik bosqichini belgilab berdi. Bu hamkorlikning ahamiyati ikki jihatdan ko‘rinadi: birinchidan, O‘zbekiston uchun iqtisodiy o’sish, texnologiyalar transferi, inson kapitali rivoji va xalqaro nufuz oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Xitoy uchun Markaziy Osiyoda barqaror va ishonchli strategik sherik sifatida O‘zbekistonning mavqeiini mustahkamlaydi. Shu tariqa mazkur muzokaralar ikki mamlakat munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga butun mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

BARQAROR, XAVFSIZ, FAROVON DUNYODA YASHASH ISTAGI

Boshlanishi 1-betda

Kelajak avlodlarga barqaror, xavfsiz va farovon dunyoni meros qoldirish bugun jamiyatimizdagi ezgu islohotlarning bosh maqsadiga aylangan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uning doirasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida bu boradagi ustuvor vazifalar belgilanib, keng qamrovli ishlar bajarilayotir.

Xususan, barcha tarmoq va sohalarning uyg’un “yashil” transformatsiyasini amalga oshirish, raqobatbardoshligi va resurstejamkorligini ta’minlash, ildim o’zgarishi oqibatlarini yumshatish va iqtisodiy o’sishning yangi, “yashil rivojlanish” modeliga o’tishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, bu jabhada turli korxonalar qatori issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish tarmoqlarida ham keng qamrovli modernizatsiya ishlari amalga oshirilayotir.

Bugun issiqlik elektr stansiyalari mamlakatimiz elektr energetikasi tarmog’ining asosi sifatida iste’molchilarga yetkazib berilayotgan elektr energiyasining salmoqli qismini ishlab chiqarmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy, yuqori samarali energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish borasida qator ishlar kilingi.

Bu borada yetakchi mamlakatlar — Yaponiya, AQSH va Yevropa davlatlarining energetika sohasidagi yirik kompaniyalari tajribasi o‘rganiildi, mamlakatimizda yangi, energiya samarador texnologiyalarni joriy etishga faol kirishildi. Natijada energiya ishlab chiqarish uchun shartli yoqilg‘i sarfi kamayib, aholi va iqtisodiyot muhtojlarini uzluksiz energiya bilan ta’minlash imkoniyati kengaymoqda.

MAMLAKATIMIZDAGI SA’Y-HARAKATLARNING USTUVOR YO’NALISHIGA AYLANDI



Dolzarb mavzu

Bugungi kunda O‘zbekistonda elektr stansiyalarining umumiy o‘rnatilgan quvvati 23 ming 462 megavatt, shu jumladan, issiqlik elektr stansiyalarining umumiy quvvati 16 ming 384 megavatt yoki yagona energotizimdagi o‘rnatilgan quvvatning 70 foizini tashkil etmoqda.

Mazkur tizimda ishlab chiqarish jarayonining yuqori samaradorligiga erishish barobarida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotiga ko‘ra, bu jarayonda ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, atrof-muhitga zararli ta’sirlarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va kogeneratsiya tizimlarini keng joriy qilishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Shu maqsadda 15 ta avtomatik monitoring stansiyasi ishga tushirildi, 16 ta ekopost o‘rnatildi, 11 ta chang-gaz tozalash uskunasi ta’mirlandi. 3 ta kogeneratsiya qurilmasi ishga tushirildi. Ishchi va mutaxassislarning ekologik sof transport vositalaridan foydalanishiga e’tibor qaratilyapti. Ahamiyatlisi, poytaxtimizning 7 ta (Mirzo Ulug‘bek, Yunusobod, Shayxontohur, Uchtep, Mirobod, Yashnobod, Yangihayot) tumanlarida 2026-yil yakuniga qadar 20-25 MVt. quvvatga ega zamonaviy kogeneratsiya markazlarini qurish va ishga tushirish



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



rejalashtirilgan. Shuningdek, 215 gektar yer maydonida an’anaviy va tomchilatib sug‘orish tizimi tashkil etildi. Ayni paytda ushbu yo‘nalishdagi ishlar davom etyapti. 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan ana shunday chora-tadbirlar hisobiga ifloslantiruvchi moddalar va karbonat angidrid chiqindilarini 45 foizga kamaytirish ko‘zda tutilgan.

Bu jarayonda muqobil energiya manbalaridan ham samarali foydalanilyapti. Xususan, joriy yilda 13,6 megavatt quvvatga ega quyosh stansiyalari ishga tushirildi. Bundan tashqari, quyosh suv isitkichlari ishlatilmoqda, quyosh panelli yoritqichlar, sensorli harakat datchiklari ham ekologik musaffolikka xizmat qilyapti.

2026-yil yakuniga qadar tizimda an’anaviy

elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan bir qatorda, “yashil energiya” ulushini ko‘paytirish maqsadida To‘raqo‘rg‘on IES, Muborak IEM va Farg‘ona IEM hududidagi bo‘sh yer maydonlarida umumiy quvvati 240 MVt. bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirildi.

Suvni tejash va obihayotni ifloslantirishning oldini olish maqsadida aylanma suv ta’minoti tizimi joriy etilgan. Sovitish jarayonida qayta foydalanish texnologiyalari qo‘llanmoqda. Yomg‘ir suvi yig‘ilib, texnik ehtiyojlari uchun ishlatilmoqda. Yer maydoni rekultivatsiya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi choralar ko‘rilmoqda.

Yurtimiz bo‘ylab keng quloqch yo‘ygan ko‘kalamzorlashtirish ishlari ushbu tizim korxonalari faoliyatining ham asosiy yo‘nalishiga aylangan. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida so‘nggi yillarda 293,9 gektar maydonda yashil belbog‘ barpo etildi.

Sanoat korxonalarini faoliyatida eng muhim yo‘nalishlardan biri chiqindilarni boshqarish va tabiatga ta’sirini kamaytirishdir. O‘tgan asrlarda bu boradagi ishlar oqilona tashkil etilmasligi natijasida paydo bo‘lgan katta-katta chiqindixonalarni jiddiy ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Chiqindi poligonlaridan tarqalayotgan tonnalab issiqxona gazlari atmosferaga jiddiy ziyon yetkazmoqda. Qolaversa, tonnalab zaharli filtratlar yer ostiga singadi.

Bu muammolarga oqilona yechim topish uchun ishlab chiqarish jarayonida chiqindisiz sof texnologiyalarni joriy etish, chiqindini saralash va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish lozim.

Mamlakatimizda bu vazifalar ijrosiga ham muntazam e’tibor qaratilyapti. Albatta, mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish har bir ishlab chiqarish tarmog‘i, barcha korxona-tashkilotlar zimmasiga katta mas’uliyat

amalga oshirish, texnik-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, muvofiqlikni baholash sohasidagi hamkorlik hamda qovun va bodomni Xitoy bozoriga eksport qilishda fitosanitariya talablarini belgilash to‘g‘risidagi bitimlar shular jumlasidan. Ushbu hujjatlar O‘zbekistonning agrosanoat va texnika sohalarini rivojlantirish bilan birga milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarda tanitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qovun va bodom eksporti to‘g‘risidagi kelishuv qishloq xo‘jaligi salohiyatini kengaytiradi.

O‘zbekiston — Xitoy munosabatlari iqtisodiy sohadan tashqari ilm-fan va innovatsiya yo‘nalishida ham kengaymoqda. Pekindagi muzokaralar doirasida sun‘iy intellekti rivojlantirish markazini tashkil etish, “Lu Ban ustaxonalari” va nufuzli universitetlar filiallarini ochish masalalari kelishib olindi.

Ushbu tashabbuslar mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtiradi, inson kapitalini rivojlantirishda yangi bosqichni belgilaydi. Xitoyning ilg‘or tajribasini jalb qilish orqali O‘zbekiston kelgusida texnologik mustaqillikka erishishi va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishi mumkin.

Shu bilan birga, kosmik fanlar va texnologiyalardan tinchlik yo‘lida foydalanish, raqamli iqtisodiyot va raqobat siyosatidagi hamkorlik bo’yicha kelishuvlar zamonaviy innovatsion sohalarda qo’shma tashabbuslarni yo‘lga qo‘yishga zamin yaratadi.

Ikki davlat o‘rtasidagi madaniy va gumanitar aloqalar ham faol rivojlanmoqda. O‘zaro madaniy markazlari tashkil etilishi, Xitoy milliy muzeyida O‘zbekistonning ishtirok etishi, 2027-yilda Shanxay va Pekinda milliy san’at ko‘rgazmalarini o‘tkazish rejasini xalqlarimiz o‘rtasidagi do’slik va ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Pekindagi muzokaralarda xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi. BMT, SHHT va “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi muvofiqlashtirish nafaqat davlatlarimiz manfaatlarini, balki mintaqaviy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston bu jarayonda faol ishtirok etib, mintaqadagi asosiy integratsiya jarayonining tashabbuskori sifatida mavqeiini kuchaytirmoqda. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish sohasida hamkorlikni mustahkamlash, Samarqand viloyati va Tyanszin shahri o‘rtasida sheriklik munosabatlari o‘rnatish ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni mahalliy darajada ham mustahkamlaydi. Bu jarayon mintaqalar kesimida ham investitsiya, ham tajriba almashuvi jarayonlarini kengaytirishi mumkin.

Umuman olganda, Pekindagi uchrashuv O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarining yangi strategik bosqichini belgilab berdi. Bu hamkorlikning ahamiyati ikki jihatdan ko‘rinadi: birinchidan, O‘zbekiston uchun iqtisodiy o’sish, texnologiyalar transferi, inson kapitali rivoji va xalqaro nufuz oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Xitoy uchun Markaziy Osiyoda barqaror va ishonchli strategik sherik sifatida O‘zbekistonning mavqeiini mustahkamlaydi. Shu tariqa mazkur muzokaralar ikki mamlakat munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga butun mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

yuklaydi. Jumladan, issiqlik elektr stansiyalari tizimida bu vazifalar ijrosini ta’minlash alohida nazoratga olingan. Ushbu yo‘nalishda suv tozalash inshootlari qurilib, tozalangan suv qayta texnologik jarayonlarga yo‘naltirilmoqda.

Issiq suv holati muntazam monitoring qilinadi. Chiqindini kamaytirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Maishiy chiqindilarni saralash tizimi shakllantirilgan. Elektron chiqindilar alohida yig‘iladi va qayta ishlanadi.

Bugungi ilm-fan va texnologiyalar yuksak taraqqiy etgan davrda har bir sohada ishni davr sur’atiga mos tashkil etish doimiy izlanish va yangiliklarni tinimsiz o‘zlashtirishni talab etadi. Bu borada xalqaro hamkorlikning ahamiyati katta. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or standartlarni joriy etish barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Bu borada sohada YTTB bilan hamkorlikda ISO 14001 tizimi joriy etilgani rivojlanish sur’atini oshirmoqda.

Bunday sa’y-harakatlarga ko‘lamini kengaytirish maqsadida ESG tamoyillari joriy etilmoqda. Karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlari monitoringi yo‘lga qo‘yilgan. Xalqaro talablar asosida havoni monitoring qilish dasturi ishlab chiqilmoqda. Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash samaradorligini oshirish chorasi ko‘rilyapti. Ayni paytda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida bu ishlar izchil davom etyapti.

Xususan, joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturida sanoat korxonalarida yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalar va lokal suv tozalash inshootlarini o‘rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, yashil maydonlarni kengaytirish, atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi yagona yashash makonimiz — ona tabiat musaffoligini asrash va kelajak avlodlarga tabiatni bezavol yetkazishga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Ortga qaytmas yo‘l

JAHON SAVDO
TASHKILOTI SARI
MUHIM QADAMAbdusaid KO‘CHIMOV,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Boshlanishi 1-betda

Savol tug‘iladi, mazkur tashkilotga a‘zo bo‘lish O‘zbekistonga nima beradi? Bu bozorga kirmoqchi bo‘lgan mamlakat qanday shartlarni bajarishi kerak?

Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishning uchta muhim sharti bor. Birinchisi, xalqaro savdoni liberallashtirish, ikkinchisi — tashkilotga a‘zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo bitimlari oshkora bo‘lishini ta‘minlash va uchinchisi — mamlakatlararo raqobat muhitini tashkil qilish.

Demak, Jahon savdo tashkilotining tub mohiyati turli mamlakatlar, mintaqalararo halol savdoni yo‘lga qo‘yish va ayni paytda taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘layotgan monopol kompaniyalarning ildiziga bolta urishdan iborat.

Bu — O‘zbekiston uchun koni foyda, degandir.

JST kichkina, imkoniyatlari chegaralangan tuzilma emas. Bugungi kunda unga dunyoning 164 ta davlati a‘zo. Global savdo va jahon yalpi ichki mahsulotining deyarli 98 foizi ushbu mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelishining o‘ziyiq ko‘p narsani anglatadi.

Yuqorida aytganimizdek, JSTga a‘zo bo‘lish uchun birinchi galda da‘vogar davlatning iqtisodiyoti erkin bo‘lmog‘i va jahon bozori uchun eshiklari ochiq bo‘lishi lozim. Ayni

WORLD TRADE
ORGANIZATION

chog‘da davlatning iqtisodiyotga aralashuvi juda kam bo‘lishi, iste‘molchilar huquqlarini cheklaydigan monopol kompaniyalarni keskin kamaytirish zarur bo‘ladi.

Tashkilotning to‘laqonli a‘zosi bo‘lish uchun ushbu talablarni bajarishdan tashqari yana davlat o‘z qonunlarini Jahon savdo tashkilotining talablariga moslashtirishi ham shart.

Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lish yo‘lida jiddiy, puxta o‘ylangan maqsadlar bilan borayotir. Yodimizda, konstitutsiyaviy islohotlar vaqtida 67-moddaga aynan shu maqsadni ko‘zlab o‘zgartirish kiritilgan edi.

Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilingan “Bozor islohotlari va O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonlari yanada jadallashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga binoan esa O‘zbekistonda mavjud qonunchilik normalari Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirildi.

Qonunda metall parchalari va chiqindilarni qayta ishlash hamda tabiiy gaz savdosini litsenziyalash orqali raqobatni kuchaytirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash ko‘zda tutilgan.

JSTga a‘zo bo‘lishning muhim shartlaridan yana biri imtiyozli — ekskluziv huquqlarni bekor qilish hisoblanadi. Ma‘lumki, JSTning Tariflar va savdo bo‘yicha bosh bitimlari a‘zo davlatlar savdodagi tarif va cheklavlarni kamaytirish va xalqaro savdoda kamsituvchi munosabatlarni bartaraf etishi lozimligi belgilangan.

Mazkur talabga muvofiq, 2024-yil 3-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan edi. Farmon bilan ayrim xo‘jalik subyektlariga berilgan maxsus imtiyozli (ekskluziv) huquqlar bekor qilindi.

Xususan, 2025-yil 1-yanvardan “O‘z-metkombinat” AJning respublika hududida qora metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) hamda “O‘zikkilamchirangli-metall” AJning rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash, eksport qilish bo‘yicha imtiyozlari — ekskluziv huquqlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

2026-yil 1-iyuldan “UzGasTrade” AJning tabiiy gazni yagona eksport qiluvchi va import orqali xarid qiluvchi operator sifatidagi huquqi hamda “O‘zenergosotish” AJning elektr energiyasini eksport va import qilishdagi markazlashgan huquqlari ham bekor qilinadi.

Qabul qilingan qonunning yana bir ahamiyatli jihati bor. Unga ko‘ra, davlat tomonidan berilayotgan ayrim imtiyoz — ekskluziv huquqlar bekor qilinadi. Ushbu faoliyat bo‘yicha litsenziyalash tartib-taomillari joriy qilinishidan kelib chiqib, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunlarga qora va rangli metall lomi va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish), qayta ishlash va realizatsiya qilish hamda tabiiy gazning ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyalash tartibini joriy etish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu esa o‘z-o‘zidan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ser, halol raqobat muhitini yaratishga keng yo‘l ochadi.

Bundan tashqari, qonun bilan qora va rangli metall parchalari hamda chiqindilarini tayyorlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish faoliyati endi litsenziya asosida amalga

Boshlanishi 1-betda

Albatta, har bir islohot zamirida inson qadri turadi. Inson qadri esa, avvalo, uning shaxsiy uyiga, o‘z boshpanasiga ega bo‘lishi bilan o‘lchanadi. Shuning uchun ham uy-joy masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Nukus shahrida 3389 kvartirali 63 ta ko‘p qavatli turar joy qurilishi ko‘zda tutilgan. Shu kungacha shahardagi Qumbiz ovul va Gulzor mahallalarida 84 xonadonli 2 ta uy foydalanishga topshirildi. Endi esa e‘tibor Nukus — Chimboy guzari atrofiga qaratilmoqda.

Qurilish ishlariga xalqaro investorlar, jumladan, Xitoy kompaniyalari ham jalb etilgan. Ular ishtirokida 10 ta uy-joy qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda 5 ta obyektida ish qizg‘in kechmoqda.

Shu bilan birga, aholi uy-joylari holatini yaxshilash, eskirgan binolarni ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ham keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Nukus shahrida 2926 ta uy-joy ta‘mirlash maqsadida qamrab olingan. Shundan shu kungacha 824 ta uy ta‘mirlanib berildi, 448 tasining tomiga yangi shifer qoplamalar o‘rnatildi. 32 ta turar joy esa butunlay qayta qurildi.

Nukus shahrida qurilish obyektlari soni ortib borayotgan bugungi sharoitda ularni sifatli materiallar bilan ta‘minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Endi bu talabni

chetdan emas, balki mahalliy imkoniyatlar hisobidan qondirish mumkin. Masalan, qurilish sanoati uchun strategik ahamiyatga ega yangi korxona — bazalt xomashyosi asosida issiqlik saqlovchi materiallar ishlab chiqaruvchi zavod ish boshladi. Loyiha doirasida yiliga 40 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Ushbu sanoat maydoni uchun 677 milliard so‘mdan ziyod investitsiya kiritildi. Bazalt asosidagi materiallar issiqlikni yaxshi saqlashi, ekologik tozaligi va barqarorligi bilan ahamiyatli. Shu bois, ular nafaqat uy-joylar, balki yirik sanoat obyektlari qurilishida ham keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Natijada 300 ta ish o‘rni yaratildi va iyul oyidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar Ozarbayjonga eksport qilina boshladi.

Qoraqalpog‘iston quyoshli kunlarining ko‘pligi bilan toza energiya ishlab chiqarish uchun qulay hudud. Endi bu afzallik ishlab chiqarishga aylanmoqda. Nukus shahrida quyosh panellari ishlab chiqaruvchi birinchi zavod — “Nukus elektroapparat” qo‘shma korxonasi yiliga 150 megavatt quvvatga ega bo‘lgan panellar ishlab chiqarmoqda. Ishlab chiqarish Xitoy uskunalari va Janubiy Koreya texnologiyasi asosida tashkil etilgan. Ayni paytda 30 dan ortiq mutaxassis ishlamoqda. Yaqin kelajakda ular soni 150 taga yetadi. E‘tiborlisi, quyosh panellari ishlab chiqarish O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Qoraqalpog‘istonda yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yirik biznes va turizm maskani

Nukus endi nafaqat ma‘muriy va madaniy markaz, balki yirik biznes va turizm maskaniga aylanayapti. Birgina misol, shahrimiz markazida qurilishi boshlangan zamonaviy kongress-xoll majmuasi 78 million dollarlik investitsiya asosida barpo etilmoqda. Ushbu loyiha nafaqat zamonaviy arxitektura, balki shahar infratuzilmasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadigan g‘oyalardan biri hisoblanadi.

Shahrimizda xizmat ko‘rsatish sohasini yangi bosqichga olib chiqadigan yana bir yirik loyiha — “Karakalpak Palace Premium” mehmonxonasi qurilishi boshlandi. Bu Qoraqalpog‘istondagi ilk besh yulduzli mehmonxona bo‘lib, u nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro sayyohlar va investorlar uchun ham yuqori darajadagi servisini taqdim etadi.

Yirik servis loyihalaridan yana biri “Eko bozor” majmuasidir. 3 gektar maydonda barpo etilgan ushbu bozorda 148 ta savdo o‘rni tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, 130 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi. Unda 225 nafar fuqaro doimiy va mavsumiy ish bilan ta‘minlanishi ko‘zda tutilgan.

“Long Water” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati 1,5 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorij investitsiyasi hisobidan “shilpiq” brendi loyihasi amalga oshirilib, bozorlar qadoqlangan sifati sut bilan ta‘minlanmoqda. Mazkur loyiha amalga oshirilishi natijasida 50 ga yaqin ish o‘rni yaratildi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonda ilgari bo‘lmagan yo‘nalishlar ham paydo bo‘lmoqda.



Obod manzillar



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM

O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

NUKUS – QORAQALPOG‘ISTONDAGI
ISLOHOTLAR MARKAZIAbatbay DANIYAROV,
Nukus shahar hokimi

Masalan, ilk bor Nukus shahrida zamonaviy standartlarga javob beradigan “Monte” muzqaymoqlari ishlab chiqarish korxonasi yo‘lga qo‘yildi. “Yuventa Nukus” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyiha asosida bozorlarni sifati sut mahsulotlari bilan ta‘minlanishiga erishildi.

Yuragimizga yaqin mavzu

Yoshlar mavzusi yuragimga yaqin. Negaki ular yurt kelajagi. Tashabbus va g‘oyalarga boy bugungi avlod vakillari. Shu bois, ular bilan subhatlashib, fikrlari bilan qiziqaman.



Prezidentimiz e‘tibori va jonkuyarligi tufayli, ayniqsa, qoraqalpog‘istonlik yoshlar oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olishidagi qo‘shimcha kvotalar, “Yoshlar daftar”dagi talabalarga kontrakt pullarining to‘lab berilishi mo‘jiza...

Ha, hozirgi vaqtda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yangiliklarning nafaqat guvohi, balki ishtirokchisi bo‘lmoqdami. Har qadamda qurilish va obodonlashtirish ishlari avj olgan. Masalan, Nukus shahrida Ta‘limni baholash agentligining 1000 o‘rinli yangi binosi

NUKUSDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN HAR BIR LOYIHA BU — XALQ UCHUN, UNING KELAJAGI UCHUN. BU DAVLAT RAHBARINING MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTIGA, ODAMLAR HAYOTIGA QARATAYOTGAN E‘TIBORINING AMALDAGI IFODASI. AYNIQSA, SHAHAR KO‘CHALARIDA ZAMONAVIY BINOLAR, KO‘P QAVATLI UYLAR QURILIB, KO‘ZNI QUVONTIRADIGAN DARAJADA O‘ZGARISHLARGA YUZ BURMOQDA.

foydalanishga topshirildi. 18,3 milliard so‘m mablag‘ evaziga barpo etilgan ushbu binoda abituriyentlar uchun milliy va xalqaro test sinovlarini yuqori standartlarda tashkil etish imkoniyati bor.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar sohasida yetuk kadrlar tayyorlash maqsadida tashkil etilgan Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Nukus filiali ham ish boshladi. 61 milliard so‘mlik davlat investitsiyasi hisobiga barpo etilgan ushbu ta‘lim maskanida AT sohasi bo‘yicha chuqur bilim berish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Prezidentimiz tashabbusi va topshiriqlari asosida Qoraqalpog‘istonda sport sohasini rivojlantirish, yoshlar uchun zamonaviy sharoit yaratish yo‘lida amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, umumiy qiymati 13 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ asosida kurash mahorati maktabi qurilishi olib borilyapti. Maktab tarkibida 150 o‘rinli yotoqxona, standart sport zali, stadion va oshxona bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu qurilishning 94 foizi yakunlangan. Shuningdek, 79,8 milliard so‘m mablag‘ yo‘natirilgan gimnastika markazi qurilishi boshlangan. Loyiha Prezident qarori asosida amalga oshirilmoqda. Foydalanishga topshirilgandan keyin gimnastika sport turlarini rivojlantirishda ulkan ahamiyatga ega inshoot bo‘lishi kutilmoqda.

Yaqinda esa boks mahorati maktabining yangi binosi foydalanishga topshirildi. 3,1 milliard so‘m investitsiya asosida qurilgan bino yosh sportchilar uchun zamonaviy imkoniyatga ega.

Mamlakatimizda yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan islohotlar qatorida aholi salomatligini mustahkamlash ham ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda.

O‘ziga xos madaniy inshoot

Shahar markazida qad rostlagan ochiq amfiteatr nafaqat yangi infratuzilma loyihasi sanaladi, balki nukusliklar, xususan, yoshlar uchun madaniy va ijtimoiy faollikning yangi maskaniga aylanmoqda. Bu yerda konsertlar, teatr tomoshalari, ochiq muloqotlar, bayram tadbirlarini o‘tkazish mumkinligi esa shahar aholisi uchun yana bir zamonaviy imkoniyat hisoblanadi.

Buni yaqqol isbotlaydigan misollardan biri Nukus shahridagi “Oq qush” majmuasida qad rostlagan, dunyodagi eng katta qora uy (o‘tov) hisoblanadi. 40,5 metr diametr va 22 metr balandlikka ega ushbu ulkan inshoot 2024-yil 22-avgust kuni Ginnessning rekordlar kitobiga rasman kiritildi. Bu nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki butun O‘zbekistonning madaniy salohiyati va me‘moriy imkoniyatlarini dunyoga tanitgan voqea bo‘ldi deyish mumkin.

Xalq uchun, kelajak uchun

Nukusda amalga oshirilayotgan har bir loyiha bu — xalq uchun, uning kelajagi uchun. Bu davlat rahbarining mamlakatimiz taraqqiyotiga, odamlar hayotiga qaratayotgan e‘tiborining amaldagi ifodasi. Ayniqsa, shahar ko‘chalarida zamonaviy binolar, ko‘p qavatli uylar qurilib, ko‘zni quvontiradigan darajada o‘zgarishlarga yuz burmoqda. Shahar aholisi soni ham yildan yilga ko‘payib, davlatimiz rahbarining ta‘rifi bilan aytganda O‘zbekistonning ikkinchi poytaxti kundan kunga chiroy ochib, kengayib boryapti. Bugungi kunda shahrimizda 350 mingdan ziyod aholi 71 ta mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qiladi.

Barcha masalalar asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich yechim topyapti. Shahrimizning deyarli barcha ko‘chalariga asfalt yotqizilmoqda. Ilgari asfalt yo‘llar masalasi 10-15 yillar davomida to‘liq hal etilmay qolar edi. O‘sha yechilmadan qolgan shahrimizdagi yo‘l masalasidagi muammalar so‘nggi yillarda barham topyapti.

Bundan tashqari, hududiy dastur doirasida 2025-yilda jami qiymati 2,3 trillion so‘m bo‘lgan 107 ta loyiha ishga tushirilishi va 2471 ta yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan. Shundan bugungi kunda qiymati 806,3 milliard so‘m bo‘lgan 48 ta loyiha ishga tushirildi va 561 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Bugungi kunda kambag‘allikdan chiqarilgan oilalar 585 ta, aholi soni 2052 nafar kishini tashkil etadi. 2025-yilning 1-yanvarigacha kambag‘al oilalar 6,6 ming oila, kambag‘allik darajasi 8,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra kambag‘al oilalar 5,4 ming, kambag‘allik darajasi 6,1 foizni tashkil etdi.

Yurtimizda ota-bobolarimiz ko‘rmagan bugungidek obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan xalqimiz cheksiz minnatdor. So‘nggi yillar ichida amalga oshirilgan o‘zgarishlar davlat rahbarining aholimizga, hududga bo‘lgan e‘tibori va ishonchi natijasidir. Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xalq uchun yaratilayotgan qulayliklar va inson manfaatini yuksak qadrlash siyosati barcha solahlarda o‘z samarasini bermokda.



SERMAHSUL, BARAKALI, YOG‘SIZ VA PARHEZBOP



Mo‘g‘ulistonning o‘ziga xos hayot tarzi, urf-odatlari, an‘analari haqida bilganimizdan ko‘ra bilmaganimiz ko‘p edi. Chunki O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston geografik jihatdan bir-biridan uzoq joylashgan. Qolaversa, savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar yetarlicha emasdi. Yangi O‘zbekistonda qarashlar, fikrlar, imkoniyatlar o‘zgardi. Biz dunyoga ochildik, dunyo bizga bag‘rini ochdi.

Xususan, Prezidentimizning joriy yil 24-25-iyun kunlari Mo‘g‘ulistonga amaliy tashrifi ikki mamlakat o‘rtasida transport, madaniyat va gumanitar sohalarida hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi, geografik o‘lchamlarni teng huquqiy asosga ega diplomatik do‘stlik o‘zgartirdi, yaqinlashtirdi. Mo‘g‘ulistonliklar haqidagi tasavvurlarimizni boyitdi, yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini berdi.

Jumladan, serquyosh O‘zbekiston zaminida yetishtirilgan sarxil mevalar, oziq-ovqat mahsulotlari, to‘qimachilik, farmatsevtika, sovittish va muzlatish uskunalari, yuk

mashinalari eksporti sezilarli darajada ko‘paydi. Mo‘g‘ulistondan qo‘y va qo‘y go‘shiti yetkazib berishga kirishildi. Bu bejiz emas, albatta.

Yirik va mayda shoxli chorva hayvonlarini boqish, ko‘paytirish, go‘sh, jun, teri mahsulotlari ishlab chiqarishda bu o‘lka dunyodagi yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Endi yurtimizda ham Mo‘g‘uliston tajribasi asosida chorvachilikni yanada rivojlantirishga ahamiyat berilyapti. Qo‘yning yangi zotlarini ko‘paytirish yo‘nalishida hayotbaxsh loyihalariga start berildi. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, mamlakatimizga Mo‘g‘ulistondan 100 ming

Shierzod QORABOYEV olgan surat.



Yaxshi boqilgan bitta qo‘y bir yilda o‘rta hisobda ikki marta bolalaydi. Natijada otarlar safi uch hissa ko‘payadi. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, bayad zotli yana 380 bosh qo‘y olib kelish, naslchilikni yo‘lga qo‘yish ustida ish olib borilyapti.

bosh zotdor qo‘y yetkazib berilishi ko‘zda tutilgan.

— Mo‘g‘ulistondan olib kelingan mayda shoxli mollar asosida mahalliy naslchilik va seleksiya ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shu orqali ularning sonini bosqichma-bosqich ko‘paytirib boramiz, — deydi Andijon viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Dilmurod Qayumov. — Loyihaning dastlabki bosqichida viloyatimizga bayad zotli ming bosh qo‘y olib kelindi. Bu shu zotdagi qo‘ylarni mahalliy sharoitga moslashtirib, ko‘paytirish uchun juda katta imkoniyat. Hozir O‘zbekiston iqlimiga moslashtirish, ehtimoliy kasalliklarning oldini olish uchun qo‘ylar veterinariya xodimlari nazorati ostida vaqtincha karantinda saqlanmoqda. Ayni paytda barcha

imkoniyatlar, xususan, sifatli ozuqaga ham jiddiy e‘tibor berilayotgani bois, qo‘ylarning holati, rivojlanishi juda yaxshi. Soha rivojida ozuqa bazasining o‘rni juda muhimligini hisobga olib, istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan. Xususan, boshqichma-bosqich ko‘paytirish uchun Xonobod qir-adirlarida Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligiga qarashli yerlardan ijara asosida yaylov ajratib berish choralarini ko‘rilyapti.

Baliqchi tumanidagi “Ulkan chinor barakasi” chorvachilik fermer xo‘jaligi mayda shoxli hayvon boqishda o‘z tajribasiga ega. Dastlab 50 bosh qo‘y-qo‘zi boqishdan ish boshlagan fermerning qo‘rasida bugun 300 bosh qo‘y bor. Ayni kunda xo‘jalik fermasiga bayad zotli 250 bosh qo‘y olib kelindi.

— Ular o‘zimizning qo‘ylardan go‘shiti ko‘p va yog‘i kamligi bilan farq qiladi, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Sanjarbek Askarov. — Masalan, mahalliy qo‘y o‘rta hisobda 25-30 kilogramm go‘sh, qilsa, uning 30-35 foizini yog‘ tashkil qiladi. Mo‘g‘uliston qo‘ylarida bu miqdor 7-8 foizga ham bormaydi. Ya‘ni yog‘i kam, parhezbo go‘sh beradi. Qo‘y olib kelish oldidan Mo‘g‘ulistonda bo‘lib, chorvadorlar ish tajribasi, naslchilik, qayta ishlash jarayonlari bilan yaqindan tanishdik, hamkorlikni yo‘lga qo‘ydik. Bu yo‘nalishda ishlash istagida bo‘lgan fermerlarga qo‘y olib kelish bilan bog‘liq transport xarajatlarning 50 foizi qoplab berildi. Bitta qo‘yning fermer xo‘jaligimizga yetib kelish xarajati 2 million 400 ming so‘mga to‘g‘ri keldi. O‘n bir gektar maydonda mayda shoxli hayvon

uchun ozuqa ekinlari yetishtiramiz. Bundan tashqari, Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi tasarrufidagi yaylovlardan foydalanish borasida yaratib berilgan imkoniyatlar soha rivojida katta ahamiyatga ega.

Qo‘y va echki eksport qilishda davlat boji 18 dollardan 7 dollarga tushirildi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash muddati foizlar hisoblanmasdan to‘lov ta‘minotisiz kechiktiriladi va keyinchalik budjet mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi. Xalqaro moliya institutlarining kredit mablag‘lari yillik 10 foiz stavkada 5 yillik imtiyozli davr bilan ajratiladi. Bularning barchasi loyihaning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish, mahalliy chorvachilik sohasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

— Yangi zotli qo‘ylar nafaqat go‘sh, sh, naslchilik, balki sifatli jun yetkazib berishda ham o‘ziga xos imkoniyatdir, — deydi Ulug‘nor tumanidagi “Iroda savdo trans” MJCH rahbari Shavkatjon Qo‘shaqov. — Bu qo‘ylarning juni mayin va uzun, oq rangda bo‘lib, xomashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishda ortiqcha xarajat va ovoragarchiliklarga chek qo‘yadi, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxi tushishida ustuvorliklar beradi.

Bu yerda yangi zotli 400 bosh qo‘y parvarishlanayapti. Yaxshi boqilgan bitta qo‘y bir yilda o‘rta hisobda ikki marta bolalaydi. Natijada otarlar safi uch hissa ko‘payadi. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, bayad zotli yana 380 bosh qo‘y olib kelish, naslchilikni yo‘lga qo‘yish ustida ish olib borilyapti.

— Mazkur yo‘nalishda tadbirkorlik qilmoqchi bo‘layotgan tashabbuskorlar safi kengayib bormoqda, — deydi Ulug‘nor tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Zulxumor Halimova. — Keyingi yillarda chorvachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik tumanimizning drayver sohalariga aylandi. Chunki Ulug‘nor Markaziy Farg‘ona yerlari o‘rtasida joylashgani bois, mayda va yirik shoxli hayvonlarni boqish, ko‘paytirishda o‘ziga xos qulayliklarga ega. Ayni kunda 24 ta mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib, zotdor qo‘ylar olib kelish, boqish, ko‘paytirish borasida berilgan imtiyoz va imkoniyatlarni targ‘ibot-tashviqot qilyapmiz, tashabbuskorlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlayapmiz.

Sirasini aytganda, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlik aloqalari har jabhada bo‘y o‘rnatmoqda. Mo‘g‘ulistondan olib kelingan yirik va mayda shoxli chorva hayvonlarini parvarishlash, ko‘paytirish, go‘sh, jun, teri mahsulotlari ishlab chiqarish borasida boshlangan loyihalar chorva naslchiligi va seleksiya ishlari yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini berayotgani bilan ahamiyatli.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“

Baliqchi tumanidagi “Ulkan chinor barakasi” chorvachilik fermer xo‘jaligi mayda shoxli hayvon boqishda o‘z tajribasiga ega. Dastlab 50 bosh qo‘y-qo‘zi boqishdan ish boshlagan fermerning qo‘rasida bugun 300 bosh qo‘y bor. Ayni kunda xo‘jalik fermasiga bayad zotli 250 bosh qo‘y olib kelindi.

HAR BIR CHIZIQDA VATAN MANFAATI BOR



Dil izhori

To‘lqin ABDULLAYEV,
Kadastr agentligi direktori
o‘rinbosari, “Sodiq xizmatlari
uchun” medali sohibi



O‘zbekistonda yer va xususiy mulkka oid keyingi yillardagi islohotlar mustaqil mamlakatimizning buguni va tarixidagi eng katta voqealardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, fuqarolarning o‘ziga tegishli xususiy mulk va yer-joyini rasmiylashtirib olishi huquqini beradigan qonunning qabul qilinishi millionlab yurtdoshlarimiz kutayotgan tarixiy hujjat bo‘ldi. Bu o‘tgan yillardagi eng muammoli sohalaridan biri bo‘lgan kadastr xizmatining 2017-yildan keyin tubdan yangilanib, fuqarolar bilan bevosita ishlaydigan, ularning murojaatlarini tezkor, qisqa vaqtda, ortiqcha qog‘ozbozliksiz hal etadigan tizimga aylangani bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz mustaqilligining 34-yilligi bayrami arafasida “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan mukofotlanganinni eshitib, shular haqida o‘yladim. Bu nafaqat mening, balki butun jamoamiz mehnatiga berilgan yuksak baho ekanini his qildim. Kadastr tizimidagi katta islohotlar orqali mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta‘minlashga hissa qo‘shayotganim, yurtdoshlarimizning yer va xususiy mulk bilan bog‘liq masalalariga yechim topishda ishtirok etayotganimdan g‘ururlandim.

Yurtimizda zamonaviy kadastr tizimini rivojlantirish, xalqimiz hayoti uchun zarur bo‘lgan aniq va ishonchli ma‘lumotlarni shakllantirish, ularni ilg‘or texnologiyalar yordamida amaliyotda faol qo‘llashni vazifa qilib olganmiz. Islohotlar orqali yer va kadastr sohasida shaffoflikni ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, odamlar manfaatini himoya qilish harakatidamiz. Bu yo‘lda raqamli texnologiyalar, geoaxborot platformalari va zamonaviy axborot tizimlaridan keng foydalanishga intilyapmiz. Boisi, bu sohada har bir raqam, har bir koordinata mamlakatimiz kelajagi, iqtisodiy rejalar va fuqarolar manfaatiga xizmat qiladi.

Kadastr sohasi katta yo‘nalish bo‘lib, ba‘zilar o‘ylaganidek, yerni o‘lchash bilangina shug‘ullanadigan tizim emas. Ayniqsa, keyingi yillarda sohaning zamonaviy yo‘nalishlari, xususan, fazoviy ma‘lumotlarning milliy infratuzilmasini

yaratish, aerokosmik suratga olish, topografik va geodinamik tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish orqali kartografik monitoring olib borishda mutlaqo yangicha yondashuvlar amalga oshirilyapti. Chunki yerning aniq qiyofasi nafaqat geodeziya sohasi yutug‘i, balki butun iqtisodiyot taraqqiyoti, to‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi uchun asosiy manbadir.

Ana shu jarayonlarning har birida shaffoflik va aniqlikni ta‘minlash nihoyatda muhim. Ayniqsa, davlat chegaralarini aniqlash va mustahkamlash sohadagi eng mas‘uliyatli vazifalardan biri. Chegaradosh davlatlar bilan muzokaralarda ishtirok etish, aniq koordinatalarni belgilash, kartografik va gidrografik ma‘lumotlarni tayyorlash jarayonining barchasida har bir hujjat, har bir chiziqli Vatan manfaatini aks ettiradi.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasining umumiy uzunligi 7109 kilometrqa yaqin. Shundan 99 foizida delimitatsiya ishlari yakuniga yetkazilgan, 1 foizida jarayonlar davom etyapti. Xususan, o‘zbek — qirg‘iz, o‘zbek — tojik hamda o‘zbek — turkman davlat chegarasida demarkatsiya qilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston — Qirg‘iziston davlat chegarasini tartibga solish maqsadida geografik obyektlar, joylarning relyefi va tabiiy obyektlardan foydalanish imkoniyatlarini inobatga olib, loyihaviy demarkatsiya chizig‘i o‘tishi yuzasidan O‘zbekiston manfaatidan kelib

chiqib takliflar tayyorlangan. O‘zbek — tojik davlat chegarasida esa chegara belgilarini o‘rnatish yuzasidan tomonlar bilan birga ishchi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Ular asosida o‘zbek — tojik davlat chegarasi chizig‘iga chegara belgilarini o‘rnatish ishlari ham parallel tarzda bajarilyapti.

Tabiat in‘om etgan katta boylik — 44 million 900 ming gektar maydonga ega xalqimiz. Demak, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarini rivojlantirish imkoniyatimiz ham ancha yuqori. Bundan yanada to‘g‘ri va unumli foydalanish uchun har qarich yerning aniq hisobi bo‘lishi kerak. Kadastr sohasidagi katta qadamlardan yana biri ham shu bilan bog‘liq.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yurtimizda 2022-yil 1-maydan boshlab ilk marta qishloq xo‘jaligi mas‘uliyatli vazifalardan biri. Chegaradosh davlatlar bilan muzokaralarda ishtirok etish, aniq koordinatalarni belgilash, kartografik va gidrografik ma‘lumotlarni tayyorlash jarayonining barchasida har bir hujjat, har bir chiziqli Vatan manfaatini aks ettiradi.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasining umumiy uzunligi 7109 kilometrqa yaqin. Shundan 99 foizida delimitatsiya ishlari yakuniga yetkazilgan, 1 foizida jarayonlar davom etyapti. Xususan, o‘zbek — qirg‘iz, o‘zbek — tojik hamda o‘zbek — turkman davlat chegarasida demarkatsiya qilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston — Qirg‘iziston davlat chegarasini tartibga solish maqsadida geografik obyektlar, joylarning relyefi va tabiiy obyektlardan foydalanish imkoniyatlarini inobatga olib, loyihaviy demarkatsiya chizig‘i o‘tishi yuzasidan O‘zbekiston manfaatidan kelib

va ilmiy asoslangan tarzda foydalanish lozim. Noqonuniy xatti-harakatlar esa javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Shu bois, Kadastr agentligi bu borada ham doimiy nazorat tadbirlarini o‘tkazadi. Xususan, joriy yilning yetti oyida amalga oshirilgan yer va kadastr nazorati tadbirlari natijasida 35 ming 449 ta holatda 2448,4 gektar yerni o‘zbohshimchalik bilan egallab olish bo‘yicha huquqbuzarliklar aniqlandi. Berilgan yozma ko‘rsatmalar asosida 24 ming 382 ta holatda 1202,6 gektar, ya‘ni 69 foiz yerda qonun buzilishi holatlari ixtiyoriy ravishda bartaraf etildi.

Shu bilan birga, o‘tgan yarim yillikda geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid



Faxr

YUKSAK E‘TIROF KATTA MAS‘ULIYAT YUKLAYDI

O‘ktam QUDRATOV,
O‘zbekiston
Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan sanoat xodimi



Oilamiz — konchilar sulolasi. Rahmatli otam Ingichka shaxta qurilish boshqarmasida uzoq yillar haydovchi bo‘lib ishlagan. Bu kasbga qiziqish bizga otamizdan o‘tgan. Akalarim Mahmud va Alisher ham shaxta qurilishi sohasida ishlab, pensiyaga chiqdi. Ayni paytda akam Hukum, opa-singillarim Mahfuza va Gulshod ham shu sohada faoliyat yuritmoqda. Shu bois, Kattago‘rg‘on tumanida bizni konchilar avlodi sifatida bilishadi.

Bundan roppa-rosa o‘ttiz yil avval ilk mehnat faoliyatimni Navoiy kon-metallurgiya kombinatida Qoqpatas konida oddiy kon ishchisi bo‘lib boshlaganman. Rizq-nasibam shu yerga, shu sohaga sochilgan ekan. Yigirma uch yil uchquduqliklar bilan bir el bo‘lib yashadim. Shahar ahli ko‘p millatli bo‘lsa-da, tez orada oilaviy do‘stlashib, qo‘ni-qo‘shni, do‘st-birodar bo‘lib ketdik. Yillar davomida mehnatim ortidan kon to‘p ming kishilik jamoada o‘z o‘rnini topdim.

Farzandlarim Abbos, Akmal va Charos Uchquduqda tug‘ilib, voyaga yetdi. Turmush o‘rtog‘im Gulnoz bilan o‘qishi, ta‘lim-tarbiyasi, til bilishiga katta e‘tibor qaratib, ular uchun yorqin kelajak yo‘lini yaratdik. O‘g‘illarimdan biri bugun Moskva aviatsiya institutida, biri AQSHdagi universitetda, qizim iqtidorliklar maktabida tahsil olmoqda. Ota-ona uchun bundan ortiq baxt-saodat bormi!

Ochig‘i, hayotimda bunday ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi deb sira o‘ylamaganman. Hammasiga mehnat, sabr-qanoat, intilish sabab bo‘lsa kerak. Faoliyatimni oddiy ustalikdan boshlab, Sharqiy kon bosh muhandisi, kon boshlig‘i, Shimoliy kon boshqarmasi

bosh muhandisi o‘rinbosari lavozimlarida ishlash nasib etdi. 2021-2023-yillarda Aumunzo-Amantoy koni ishlab chiqarish texnik bo‘limi boshlig‘i bo‘ldim. Ayni paytda Pistali koni bosh muhandisi o‘rinbosariman.

Angladimki, har qanday insonning hayotda kim, qanday bo‘lishi o‘ziga, intilishiga bog‘liq. Bunga faoliyatim misol. O‘zingiz o‘ylang, oddiy haydovchining o‘g‘li olis elda ishlaydi, o‘z o‘rnini topadi, davlat mukofotlariga sazovor bo‘ladi deb kim o‘ylabdi deysiz. Bu ham, albatta, davlatimizning, kombinat rahbariyatining sohamizga, bu kasbda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarga e‘tibordan dalolat.

Joriy yil men uchun yanada quvonchli keldi. Mustaqilligimizning o‘ttizto‘rt yillig‘i bayrami kunlarida “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan mukofotlandim. Ochig‘i, bunday rag‘batni, davlatimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlanishni hech kutmagandim. Ellik uch yoshimda shunday e‘tirofga sazovor bo‘ldim. Farmon e‘lon qilingan kunda mehnat ta‘tilida, “Chinobod” sanatoriysida dam olayotgan edim.

Kechki payt xonamga uchquduqlik Normuhammad aka xursand holda kirib keldi. Meni bag‘riga bosib, tabriklay ketdi. Avvaliga nima gapligini bilmay hayron bo‘ldim. Hamkasbim: “Aka, davlat mukofoti muborak! Mana, ijtimoiy tarmog‘da chiqibdi”, degandan so‘nggina bu xursandchilik va tabrik mohiyatini angladim. Jannatnomand yurtda yashab, konchilik va metallurgiya sohasida ishlab, uning rivojiga hissa qo‘shayotganimdan hamisha faxrlanam. Inson qadri ulug‘langan zaminda yurt taraqqiyligiga xizmat qilish, ishonchni oqlash hamisha birinchi darajali vazifam bo‘lib qoladi.



Shukuh



Shu kunlarda yurtimiz bo‘ylab ajib kayfiyat kezib yuribdi. Barchamiz uchun eng ulug‘ va aziz ayyom — mustaqilligimizning 34 yilligini keng va ko‘tarinki kayfiyatda nishonladik. O‘ttiz to‘rt yil ko‘hna dunyo uchun bir lahzaday gap. Xalq tili bilan aytganda, “u yoqdan bu yoqqa qaraguncha o‘tib ketadigan fursat”. Gap ana shu fursatning qanday o‘tganida, o‘tayotganida.

YURTNING KUCHI — BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDA

O‘tgan vaqt davomida mustaqil O‘zbekistonda qancha o‘zgarishlar ro‘y bermadi deysiz?! Qilingan ishlar, amalga oshirilgan islohotlar samarasini atrofga bir qur nazar tashlagan inson darrov ilg‘aydi.

Ochig‘i, ayrim ishlar, islohotlar ko‘lami odamning hayratini oshirish barobarida aqlini ham shoshirib qo‘yayotgani bor gap. Tasavvurga sig‘maydigan, oldin imkoni yo‘qdek tuyulgan yumushlar bugun oddiy vazifaga aylanayotganini nafaqat ko‘rib,

bilib turibmiz, balki o‘z tanimizda his etyapmiz. Ilgari faqat xorijda ko‘rgan mahsulotlarimiz, aytaylik, maishiy texnikalar bugun xonadonimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. E‘tiborlisi, ularning barchasini o‘zimizning tadbirkorlar ishlab chiqarmoqda. Avvallari

boshqalar uchun paxta xomashyosi yetkazib berish bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsak, bugun o‘zimizning xomashyoni o‘zimizning to‘qimachilik korxonalari yarim tayyor va tayyor mahsulot sifatida xorij bozoriga yetkazib beryapti. Yoshlarimiz dunyo kezmog‘da, o‘z bilimi va iqtidori bilan jahonni hayratga solmoqda. Xullas, ro‘yxatni davom ettiradigan bo‘lsak, ancha uzun bo‘lishi turgan gap. Muhimi, bundan o‘ttiz to‘rt yil oldin dunyo O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida tan olgan bo‘lsa, endi xalqaro siyosat maydonining faol ishtirokchisi, tashabbuskor, tinchlikparvar, bunyodkor mamlakat sifatida hamkorlikka intilmoqda. Ayniqsa, keyingi yetti-sakkiz yilda yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarni kuzatayotgan jahon ahli buni yana bir karra anglab yetmoqda, tushumog‘da.

Qayd etganimizdek, mustaqillik davlatni davlat sifatida dunyoga tanitgan bo‘lsa, odamlarga erkinlik, huquq bergan ham, ularni fikrlashga, tashabbusga o‘rgatgan ham. Vatan uchun, millat, xalq uchun fidoyilik bilan mehnat qilish oridan farovon yashashga o‘rgatgan ham ana shu istiqloldir. Bugun istiqlol epknlari — o‘zgarishlar har jabbada, har bir ishda yaqqol ko‘rinadi. Shunday: bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

Bayram shukhi kezib yurgan shu pallada ba‘zi yurtodsharimizning istiqlol ruhi, kayfiyati, imkoniyati va hayotidagi o‘zgarishlar haqidagi fikrlarini yozib oldik.

BIRDAMLIK XALQNI TARAQQIYOTGA YETAKLAYDI

bilan bo‘lib o‘tgan tarixiy uchrashuvining o‘ziyoq akademiyamiz hayotida tub burilish davrini boshlab berganini eslash joiz. Fanlar akademiyasi faoliyati o‘zgardi, tizimda ilmiy tashkilotlar qaytadan tashkil etildi, yangi muassasalar ochildi. Bu esa, o‘z navbatida, Uchinchi Renessansga qo‘yilayotgan ilk qadam edi.

Ayni paytda mamlakatimizda ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlar va tadqiqotchilarni rag‘batlantirish, ular uchun munosib shart-sharoitlar yaratish borasida ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy markazlar va texnoparklar tashkil etilishi, xalqaro grantlar va loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlari yaratilishi — bularning barchasi milliy ilmiy salohiyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, fan va ta‘lim integratsiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarilaypti. Rivojlanishni tinchliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari ta‘minlanishi, har bir fuqaroning xavfsizligi, baxt va ertangi kunga ishonchi deganidir. Shukr, yurtimiz tinch, osuda hayot kechiryapmiz.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi mamlakatimizdagi ilmiy salohiyatning asosi sifatida nafaqat ilmiy tadqiqotlarni samarali boshqarish va muvofiqlashtirishni, balki davlatning intellektual, ijtimoiy-iqtisodiy va

ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan fan yutuqlari va ilmiy hajmdor texnologiyalarni joriy etishda faol ishlamoqda. Davlatimiz rahbari har bir chiqishida, turli uchrashuvlarda hamma sohaning asosida ilm-fan mujassamligini ta‘kidlaydi.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz ertasi bugunimiz bilan bog‘liq. Agar bugun birdam bo‘lib, tinchlik va barqarorlikni asrasak, ertaga farzandlarimiz rivojlangan, obod va ma‘rifatli yurtida yashaydi. Zero, tinchlik — eng ulug‘ ne‘mat. Uni mustahkamlash, birdamlikni ta‘minlash faqat siyosiy tomondan emas, balki ma‘naviy uyg‘oqlik, umummilliy birlik va fidoyilik orqali ta‘minlanadi.



Do‘stmurod ABDULLAYEV,
agronom, O‘zbekiston Qahramoni
(Samarqand viloyati):

— O‘tgan yillar el-yurtimiz uchun o‘z taqdirining haqiqiy egasi bo‘lish,

ULUG‘VOR MAQSADLI O‘TTIZ TO‘RT YIL

qadr-qimmatini anglash, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Xalqimiz farovonligi, dasturxonimiz fayzu barakasini barcha soha qatori qishloq xo‘jaligi istiqboliga ham bog‘liq bo‘lgani holda keyingi yillarda iqtisodiyotimizning mazkur muhim tarmog‘ini rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo davlatlari, asosan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Biroq yetishtirilgan paxta chet elda qayta ishlanar, xalqimiz mehnati hisobiga topilgan daromadning atigi 20 foizi o‘zimizga tegar edi. O‘sha yillarda paxta yagona asosiy ekin sifatida ko‘rib kelingani sababli mamlakatimizni to‘liq oziq-ovqat bilan ta‘minlash masalasi kun tartibiga chiqishi ham mumkin emas edi. Shu bois, aholiga zarur asosiy oziq-ovqat mahsulotlari — bug‘doy, go‘sht, sut va sut mahsulotlari, tuxum, shakar, hatto ayrim turdagi meva-sabzavotlar hamda kartoshka chetdan olib kelinardi. Eng og‘riqli jihati, almashlab ekish tizimi yo‘lga qo‘yilmagani uchun yer sho‘rlanib, hosildorlik yildan yilga pasayib bordi, ekologik muammolar esa tobora keskinlashdi.

Mustaqillikdan so‘ng qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarildi. Ayniqsa, bozor munosabatlarni va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar o‘zining yuksak samarasini bermog‘da. Buni yurtimizda fermerlik harakati joriy qilingani misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Ayniqsa, mahsulotni qishloqda qayta ishlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish fermerlarning asosiy maqsadiga aylandi. Buning uchun esa ular qo‘shimcha tarmoqlar sonini ko‘paytirishga tinimsiz harakat qilmoqda. Mulchilikning yuzaga kelishi yerga munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Fermer endi har qarich yerga mehr qo‘yib, almashlab ekish, zamonaviy agrotexnikalardan foydalanish, mahalliy o‘g‘itlar qo‘llash va innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirmog‘da. Hozir fermerlar g‘allachilikda resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni qo‘llab, hosilni 80-90, hatto 100 sentnerga yetkazmoqda.

Davlat tomondan berilgan imtiyozlar, kreditlar, subsidiyalar, zamonaviy texnika va agregatlar qishloq xo‘jaligini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘ldi.

“Yurtimiz kelajagi, xalqimiz ertasi bugunimiz bilan bog‘liq. Agar bugun birdam bo‘lib, tinchlik va barqarorlikni asrasak, ertaga farzandlarimiz rivojlangan, obod va ma‘rifatli yurtida yashaydi.

MENING HIKOYAM

**Behzod XOLMURODOV,
“El-yurt umidi” jamg‘armasi
stipendiati, AQSHdagi Dreksel
universiteti talabasi:**

— “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil mamlakatimizda so‘nggi yillardagi islohotlar an‘anaviy xomashyo sektoridan inson salohiyatiga qaratilganidan dalolat beradi. Birgina misol, bugun o‘zbekistonliklar dunyoning eng nufuzli 500 ta universitetga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchilik qilmoqda.

Bu ko‘rsatkich shunchaki statistika emas. Milliy ta‘lim siyosati va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yangi iqtisodiy kuchga aylanib borayotgani ifodasi, innovatsiya va insoniyatni bog‘lovchi siyosiy qudratning kutilayotgan natijasi.

Mening hikoyam ham ushbu siyosatning yaqqol misolidir. Hozir Dreksel universitetida muhandislik mexanikasi bo‘yicha ta‘lim olayman. AQSH men uchun nafaqat bilim olish maydoni, balki ikki qutbning tutashgan nuqtasi bo‘ldi. Bir tomondan G‘arbiy zamonaviy texnologiyalari va intizomi, boshqa tomondan yangi O‘zbekistonning intilishlari.

Mening yo‘lim “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan boshlandi. Bu dastur minglab o‘zbekistonlik yoshlarga dunyoning nufuzli oliy o‘quv yurtlari eshiklarini ochib berdi. O‘zinni shunchaki talaba emas, balki Vatanim tarixining yangi bosqichi — yangi O‘zbekistonning faol ishtirokchisi deb his qilaman.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 5-maydagi farmoni bilan mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil etildi. Jamg‘arma iste‘dodlilarni jalb qiluvchi dinamik



markazga, xalqaro standartlar va mamlakatning strategik manfaatlariga yo‘natirilgan ochiq platformaga aylanmoqda. Uning faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, kadrlar tayyorlashga yondashuvni qayta shakllantirish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi. Ushbu chora-tadbirlar o‘zbekistonlik yoshlar va mutaxassislarga jahon darajasidagi bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda ularni mamlakat farovonligi yo‘lida qo‘llash imkonini beradigan keng ko‘lamli tashabbuslar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

O‘zbekiston resurs salohiyatiga ega davlat. Asosiy e‘tibor xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishga qaratilmoqda. Jahon tendensiyasi aniq: bu qadami o‘z vaqtida qo‘ygan mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya) nafaqat iqtisodiyotni mustahkamlashga, balki global bozorda yangi o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘ldi. O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda zamonaviy bilim va xalqaro tajribani o‘zlashtirgan malakali kadrlar tayyorlash orqali transformatsiya jarayonlaridan tezroq va yuqori natijalari bilan o‘tish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston jahon maydoniga raqobatbardosh mamlakat sifatida chiqishni

maqsad qilgan, shuning uchun dunyo bilan bir tilda — ilm-fan, texnologiyalar va islohotlar tilida so‘zlashadigan mutaxassislarga e‘tibor qaratilmoqda. Bu yerda ham oddiy mantiq bor: islohotlarni amalga oshiruvchilarsiz ularni ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham “El-yurt umidi” jamg‘armasi bu oddiy stipendiya dasturi emas, balki milliy elita — muhandislar, iqtisodchilar, shifokorlar va rahbarlarni tayyorlashning tizimli vositasidir. Maqsad iqtidorli yoshlar va mutaxassislarni xorijdagi nufuzli ta‘lim, ilmiy va boshqa tashkilotlarda o‘qishini tashkil etish hamda davlat xizmatchilarini xorijiy mamlakatlarda o‘qitish va stajirovkasini tashkil etish orqali ularning kasbiy ko‘nikmasi, bilimi va tajribasini yanada oshirishdan iborat.

Shunday jarayonda o‘zinni faqat stipendiat emas, balki “El-yurt umidi” jamg‘armasining yangi davrdagi faol ishtirokchisi sifatida ko‘ryapman. “El-yurt umidi” jamg‘armasining AQSH va Kanadada tahsil olayotgan stipendiatlarining saylangan yetakchisi sifatida yuzlab yoshlar bilan ishladim. Ularning ilk kunlardan o‘qish jarayoniga moslashishi, tarmoq qurishi va yurt bilan bog‘liqlik tuyg‘usini mustahkamlashi uchun tizimli tadbirlar tashkil qildim. Bu faqat ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash emas, balki davlat xizmatini kuchaytiruvchi kadrlar zanjirini qurishning amaldagi namunasi edi.

Jamg‘armaning transformatsiyasi aynan shu nuqtadan kuch oladi: stipendiat xorijda o‘qiyotgandayoq davlat va tarmoq ichidagi strategik maqsadlarga xizmat qiladigan munosabatlarni quriladi, qaytgach esa tayyor va faol mutaxassis sifatida tizimga integratsiya qilinadi. Bu jarayonda shaxsiy misolim ham shunga dalil. geologiyadan boshlangan yo‘lim mexanika muhandisligi bo‘yicha bakalavriat va xalqaro iqtisodiyot bilan uyg‘un bilim, AQSHdagi 20 oylik kooperativ tajriba — bularning barchasi Vatanga qaytgach, sanoat, ta‘lim va davlat boshqaruvi kesishmasida xizmat qilish uchun to‘plangan resurs.

BETAKROR O‘LKADA YASHASH ZAVQI

**Shodiyor XO‘JANAZAROV,
mehnat faxriysi
(Qashqadaryo viloyati):**

— Betakror yurtida keksalik gashini surishning o‘zi katta baxt. Yoshim saksondan oshdi. Gohida o‘tgan umrimni yillar ketma-ketligida sarhisob qilib ko‘raman. Eh-he, qancha og‘ir damlarni boshdan kechirdim. Inson qadri haqida gapirishga cho‘chiydigan vaqlar bo‘ldi. Faqat dalaga chiqish kerak. Ishlash kerak. Hech kim yaxshi yashash, bilim olish haqida so‘z ochmasdi. Farzandlarimiz bilim olishi uchun sharoit yaratishga bosh qotirib ham o‘tirilmasdi. Obodlik, farovonlik degan so‘zlar faqat minbarlarda aytilardi. Amalda esa biror tayinli ish yo‘q edi. Esga olaversangiz, yurakka og‘riq kiradi...

Ishim qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgani bois, asosiy vaqtim dalada o‘tardi. Gohida bolalarning miriqib ilm oladigan pallasi paxta dalasida o‘tayotganini ko‘rib,



chidab turolmasdim. O‘qituvchilarni aytmaysizmi?

Bugun o‘tayotgan harbirkunimizga qancha shukrona aytasak kam. Axir shunday go‘zal, tinch va osuda mamlakatda yashashning o‘zi baxt emasmi? Ishonmasangiz, yurtimizni bir aylanib chiqing. Bugun, shubhasiz, qay



manzilda bo‘lmang, faqat bunyodkorlik, odamlar turmush tarzini yaxshilash, yangidan yangi islohotlar amalga oshayotgani, yirik loyihalar ishga tushayotgani, xullas, inson qadri yuksalishi uchun qilinayotgan o‘zgarishlarning ustidan chiqasiz. Misol uchun, birgina Qashqadaryo viloyatini olsak, soatlab so‘z yuritishim mumkin. Keyingi yillarda voha butunlay yangi qiyofaga kirdi. Har bir sohada yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim deysizmi, sog‘liqni saqlashni, qishloq xo‘jaligini, shaharsozlik tizimini — barchasida faqat o‘zgarishlar ro‘yi berayotganiga guvoh bo‘lasiz.

Yirik zavod va korxonalar barpo etilib, odamlar ish bilan ta‘minlanmoqda. Tadbirkorlarga keng yo‘l ochilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ham kengaydi. Xabaringiz bo‘lsa, “Uzbekistan GTL” zavodi to‘liq quvvatda ishlay boshladi. Endi mahsulotlari butun Yevropa bo‘ylab sotila boshlaydi. Bundan tashqari, bugun viloyatning chekka qishlog‘ida dehqonchilik qilayotgan ishbilarmen ham mahsulotini bemalol istagan davlatga eksport qilmoqda.

Tibbiyotdagi islohotlar odamlar og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilmoqda. Har bir hududda aholi davolanishi uchun sharoitlar yaratilyapti. Yangi tibbiyot muassasalari barpo etilmog‘da. Yaqinda Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan yurak kasalliklariga ixtisoslashgan klinika imkoniyatlarni ancha yuqori. Har bir bayram arafasida bo‘lgani kabi bu yilgi Mustaqillik shodiyonalari oldidan ko‘plab yangi ijtimoiy-iqtisodiy majmualar ochildi. Bir qator maktab va bog‘cha binolari yangidan qurilib, ishga tushirildi. Xullas, bugun har bir kunimizga havas bilan boqish uchun asosimiz mo‘l. Ilohim, yurtimizga ko‘z tegmasin. Istiqlolimiz abadiy bo‘lsin!

“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari
Dilshod ULUG‘MURODOV,
Risolat MADIYEVA tayyorladi.

4-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida taniqli davlat va jamoat arbobi, sharqshunos olim, mohir pedagog va diplomat Rustam Qosimov xotirasiga bag‘ishlab, “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan kitobning taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda keng jamoatchilik namoyandalari, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, olimning hamkasblari va shogirdlari hamda oila a‘zolari ishtirok etdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar Rustam Qosimovning el-yurtimiz oldidagi ko‘p yillik samarali xizmatlari, amalga oshirgan ezuu va xayrli ishlari, go‘zal insoniy fazilatlarini yod etdi.

Agar hayot bo‘lganida Rustam Qosimov bu yil tabarruk 70 yoshni qarshilar edi. Ushbu qutlug‘ sana arafasida nashr qilingan mazkur to‘plamdan taniqli davlat va jamoat arboblari, senator va deputatlar, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat va san‘at xodimlari, shoir va adiblar, olimning yaqin do‘stlari, hamkasblari va shogirdlarining yodnomalari o‘rin olgan. Ularda Rustam Qosimovning ibratli umr yo‘li, samarali ijtimoiy faoliyati, betakror insoniy fazilatleri, ona

aytishni bilmay siqilib yurar edim. U ko‘zimga sinovchan tikildi.

— Yo‘q, aka, sezib turibman, ichingizda aytolmayotgan bir gapingiz borga o‘xshaydi, — dedi. — Aytimg, nima gap, nimadan tashvishlanypsis?

“Yo, tavba, — dedim ichimda, — bu odam bunchalar ziyrak bo‘lmasa yoki dardimni o‘zim ham bilmasdan sezdirib qo‘ydimmikan? Yo‘q, bu haqda birovga churq etmagan edim-ku...”. Noiloj, dilimni yordim. Gapimni diqqat bilan eshitdi, keyin: “Hech kuyinmang, aka, hammasi yaxshi bo‘ladi”, deya ancha ko‘nglimni ko‘tardi, yordam qilishga va‘da berdi. So‘zining ustidan chiqib, oilamizga, akamga ko‘p yordam ko‘rsatdi...”.



yurtga chin farzandlik muhabbati, talabchan va jonkuyar ustoz-murabbiy sifatida o‘nlab shogirdlariga ko‘rsatgan mehr-e‘tibori hamda g‘amxo‘rliklari yorqin hayotiy voqealar orqali ochib berilgan.

Masalan, taniqli sharqshunos va diplomat Shoazim Minovarov o‘zining mo‘jaz maqolasida bunday voqeani hikoya qiladi: “Rustam Sobirovich Bosh vazir o‘rinbosari bo‘lib ishlab yurgan damlari bir kuni kabinetidagi kichik yig‘ilishdan keyin: “Shoazim aka, siz qoling”, dedi. Boshqalar chiqib ketgach: “Menga aytadigan biror gapingiz yo‘qmi?” deb so‘radi kutilmaganda. “Yo‘q, hammasi joyida, tinchlik...”, dedim-u, lekin to‘g‘risini aytganda, o‘sha kezlari rahmatli akam og‘ir dardga chalingan, nima qilishni, bu haqda kimga

Darhaqiqat, xotira kechasida e‘tirof etilganidek, Rustam Qosimov hech qachon atrofidagi insonlarning g‘am-tashvishiga befarq bo‘lmagan. Qo‘lidan kelgancha ularga amaliy g‘amxo‘rlik qilgan, qo‘llab-quvvatlagan. Bunga ushbu to‘plamdagi juda ko‘p yodnomalar ham guvohlik beradi.

Ustoz nafaqat yaqin shogirdlari, balki vatanga xizmat qilishga bel bog‘lagan barcha yosh kadrlarning yutuqlaridan behad quvonar, o‘rni kelganda ulardan qimmatli o‘g‘itlarini ayamasa, bu mehrga javoban shogirdlari, ukalari ham uni g‘oyat hurmat qilar va qadrlar edi.

Bugun taniqli adabiyotshunos, akademik sifatida elga tanilgan zukko olim va pedagog Shuhrat Sirojiddinov taqdiri bunga misol bo‘la oladi. Shuhrat domlanning kitobdan o‘rin olgan



maqolasida yozilishicha, 2003-yil sentabr oyida u Buyuk Britaniyadan — Oksforddagi Islom tadqiqotlari markazidan qaytib kelib, tez orada yana shu markazga ishga jo‘nab ketishi kerak bo‘lgan.

“Bir ish bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga yo‘lim tushdi, — deb

navoiyshunos bo‘lib tanilyapsiz, — deydi Rustam Sobirovich. — Birga ishlasak, nima deysiz? Jahon madaniyati va falsafa kafedrasini sizga topshirsam, ko‘tarib berardingiz-da, ukajon”.

Bu kutilmagan taklifdan yosh olim quvonishniyam, quvonmaslikniyam bilmay qoladi. Jomadonni tayyorlab, chet elga, nufuzli ilmiy dargohga ishga ketayotgan odam nima qilsin?..

“Qo‘limda uch yillik shartnomam bor. Oksfordda meni kutishyapti”, deydi u sekin, iloji boricha ustozni xafa qilib qo‘ymaslikka urinib.

Xuddi mana shu joyda Rustam Sobirovichning naqadar fidoyi, vatanparvar shaxs ekani namoyon bo‘ladi. U yosh olimga kuyunchaklik bilan deydi: “Hammangiz qochaversangiz, davlatni kim oyogga turg‘izadi? Milliy-diniy qadriyatlarini tiklash, yoshlar orasida ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlariini yaxshilash kun tartibiga asosiy masala etib qo‘yilgan, shuni tushunasizmi? Bu vazifani bajarish qo‘lidan keladigan kadrlar oshib-toshib yotganida, men bu gaplarni balki gapirib o‘tirmasdim...”


— So‘ngra, muallifning izohlashicha, yana o‘sha “yigirma yillar oldingi o‘zimizning Rustam akamiz” bo‘lib, hamsuhbatini yaqin olib,



eslaydi Sh.Sirojiddinov. — Kiraverishda Rustam Sobirovichga duch keldim...”.

Ikki qadrdon uzoq vaqt suhbatlashib qoladi. “Shuhratjon, maqolaringizni o‘qib turaman. Yaxshigina adabiyotshunos, eng muhimi,

so‘zida davom etadi. — Davlat senga o‘xshagan tushungan odamlarga, ilmiy, ziyoli kadrlarga muhtoj, nahotki shuni anglamasang, ukajon... Oksford qochib ketmas, lekin mana bu ishlar qochib ketishi mumkin...”.



Go‘zal odob-axloq, shirinsuxanlik, muomala, muloqot madaniyati ham katta va noyob ne‘mat. Ustoz Rustam Qosimov ayni shunday jihatlariga ega edi. Ko‘p kitob o‘qigani bois, so‘z boyligi ham ko‘p, chiroyli lutfilari bilan insonlar ko‘ngliga yo‘l topa olardi.

Malika SABUROVA,
O‘zDJTU xalqaro jurnalistika
fakulteti o‘qituvchisi

Suv — hayot manbai, tiriklik saodati. Yurtimizda suv resurslarini asrash va samarali boshqarish bo‘yicha qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Obihayot tanqisligiga qarshi kurashish, uni tejash texnologiyalarini joriy etish, suv havzalari va manbalarini muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar shular sirasiga kiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishning ustuvor yo‘nalishlari va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini aks ettiruvchi qator konseptual hujjatlar qabul qilindi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitda muhofaza qilish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi kabi huquqiy hujjatlar shular jumlasidan. Ammo bu hujjatlar qog‘ozda qanchalik mukammal bo‘lmasin, joylarda ro‘yobi ta‘minlamasa ekan, samarasi hech qachon sezilmaydi.


Hozir ko‘plab fermerlar, tadbirkorlar va aholi ushbu hujjatlar mazmunidan to‘la xabardor emas. Sug‘orishdagi uzilishlar, tizimning eskirishi, suvning hududlar bo‘yicha adolatsiz taqsimlanishi haqida ko‘p shikoyatlar bo‘lsa-



da, ularni eshitadigan, yechim izlaydigan jamoatchilik platformasi yo‘q. Bunday jarayonda esa eng muhim vazifani ommaviy axborot vositalari bajarishi lozim.

Mamlakatimizning turli hududlarida mutlaqo turlicha manzara kuzatilmoqda. Bir yerda har tomchi suv aniq hisoblanib, innovatsion sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan. Boshqa hududda esa ancha vaqt ilgari qirilgan drenaj orqali haligacha sug‘orish ishlari bajarilyapti. Qaysidir qishloqda odamlar soy suvidan yoki yer osti suvidan foydalanishga majbur, boshqa yerda esa ichimlik suv shafqatsizlarcha isrof qilinmoqda. Agar ommaviy axborot vositalari ushbu ziddiyatli manzarani aniq ko‘rsatmasa, aholi nafaqat yechimini, balki muammoning o‘zini ham to‘liq anglamaydi.

Jamoatchilik nazorati axborotni tarqatishdangina iborat emas. U tahlil qilish, taqqoslash, mutasaddilarni javobgarlikka chaqirish, qarorlarning haqiqiy samarasini



SUV MUAMMOLARI VA JURNALISTIKA



o‘rganishni ham qamrab oladi. Ammo bizdagi muammo shundaki, axborotda ko‘p hollarda yangiliklarni quruq ta‘kidlash bilan cheklanib qolinmoqda. Boshqacha aytganda, “suv ta‘minotida uzilish yuz berdi”, “ishlar tanqid qilindi”, “hududda suv yetishmovchiligi kuzatildi” kabi satrlar ortida chuqur tahlillar yo‘q.

Jurnalistik materiallarda voqea joyidan tayyorlangan reportajlar, ochiq intervyyular, fuqarolar fikrlari, mutaxassis xulosalari yetishmaypti. Masalan, biror viloyatda joriy etilgan yangi sug‘orish texnologiyalari haqida maqola chiqsa, faqat “yangi qurilma ishga tushdi” degan gap bilan cheklanadi. Ammo uning samarasi, fermerlar munosabati, ekologiyaga

ijobiy ta‘siri va mahalliy aholi ishtiroki haqida mulohazalar ko‘rinmaydi.

To‘g‘ri, saytlarda suv muammolariga qiziqish va muhokama ortib bormoqda. YouTube kabi platformalardagi maxsus videolar, infografika va interaktiv materiallarda aholiga tushunarli ma‘lumotlar berilyapti. Ijtimoiy tarmoqlarda “Suvni tejaylik” kabi heshteglar ostida ekologik ongini oshirishga qaratilgan aksiyalar o‘tkazilmoqda. Bloglar, forumlar va mustaqil platformalarda esa odamlar suv tanqisligi, uyir yechimlari haqida faol fikr almashmoqda. Ayrim axborot vositalari tomonidan maxsus loyihalar, intervyyular, tadqiqotlar asosida tayyorlangan kontentlar jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Internet kontentlarida suvning ifloslanishi borasida chiqishlar bo‘lyapti. Lekin bu ko‘p millionli aholi uchun yetarli emas.

Shunday ekan, bugungi asosiy vazifa axborotni to‘plash emas, balki uni tahlil etish, chuqurlashtirish va fuqarolarni xabardorlik asosida qaror qabul qilishga undashdir. Chunki suv masalasi shunchaki resurs emas, balki xalqning hayoti va ertasi bilan chambarchas bog‘liq buyot-mamot masalasidir.

Hozir dam olish joylarida va shaharlarda suv resurslarini muhofaza qilish bilan bog‘liq jiddiy muammolar mavjud. Ilgari har bir hovlidan ariqlar o‘tgan, suv tabiiy holatda aylanib, atrof-

Jumladan, taniqli yozuvchi Mamatqul Hazratqulovning Rustam Qosimov haqidagi quyidagi gaplari e‘tiborli: “Yana bir xislati yodimda qolgan: sof adabiy tilda gapirardi, deyarli sheva ishatmas edi. O‘ylaymanki, bu rahbarlar uchun, ayniqsa, yuqori lavozimda o‘tirgan shaxslar uchun juda muhim va ahamiyati katta. U kishi kibrdan, manmanlikdan xoli, xo‘jako‘rsinga ish qilmas, tabiatan kamtar inson bo‘lgan. Men falonchiman, sen kim bo‘lisan degan qarash Rustam akaga mutlaqo yot edi...”.

Ha, go‘zal odob-axloq, shirinsuxanlik, muomala, muloqot madaniyati ham katta va noyob ne‘mat. Ustoz Rustam Qosimov ayni shunday jihatlariga ega shaxs edi. Ko‘p kitob o‘qigani bois, so‘z boyligi ham ko‘p, chiroyli lutfilari bilan insonlar ko‘ngliga yo‘l topa olardi.

“O‘sha kezlari biz yonma-yon binolarda ishlardik, — deb yozadi Mamatqul Hazratqulov ustozning Kasaba uyushmalari federatsiyasida faoliyat yuritgan damlarini eslab. — Bir gal suhbatlashib qolganimizda, kulib hazillashgani yodimda: “Toshkent gullari”ning bu yonida men, u yonida siz... O‘rtamizda har holda gul-ku, chaqitqan bo‘lishidan Xudo asrasin”. Topqirlikni, lutfning go‘zalligini qarang!

Rustam Qosimov yosh kadrlarni jamiyatning, mamlakatning, xalqning eng katta tayanchi deb bilgan. Kitobda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori Otabek Hasanov Rustam Qosimovning bunday muhim o‘g‘itini keltirib o‘tgan: “Bilimli kadr bu — hali yaxshi kadr degani emas. Yaxshi kadr bo‘lishi uchun u tarbiyali, millatparvar, yurtparvar ham bo‘lishi kerak”.

Kitobga jamlangan shu kabi samimiy xotiralarni o‘qir ekanman, ko‘nglimdan ko‘p o‘ylar kechdi, ustozim bilan qayta uchrashib, unutilmas va fayzli suhbatlarini olgandek bo‘ldim. U bilan yonma-yon ishlagan yillarimni esladim.

Men so‘zimni o‘zim uchun aziz bo‘lgan bir xotira bilan yakunlamochimam.

2021-yil bahori edi, Rustam Qosimov shifoxonaga tushib qolganini eshitib, bezovtalandim. Tez-tez xabar olib, goh ustozdan, gohida farzandlari va yaqinlaridan ahvollarini so‘rab turdim. Bir kuni ustozga telefon qilsam, javob bermadi, qattiq xavotirga tushdim. Bir ozdan so‘ng o‘zi aloqaga chiqib, telegrammdan “Botu, yaxshimisanz?” deb yozib qoldi, quvonib ketdim. Yozishdik, hol-ahvol so‘rashdik. “O‘zingizni ehtiyot qiling, sog‘ayib keting”, deb yozdim. Ustozning oxirgi gaplari “Botu, omon bo‘l!” degan jumla bo‘ldi.

Men bu so‘zlarni ustozimning so‘nggi duosi o‘rvida hamon yuragimda saqlab yuraman.

Ruhingiz shod bo‘lsin, aziz ustoz!

Botu ALIMOV,
Respublika Ma‘naviyat va
ma‘rifat markazi
rahbarining birinchi o‘rinbosari,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

muhitni tozalab turgan. Bugun esa ko‘plab suv havzalarga chiqindi tashlanmoqda. Eng yomoni, ichimlik suv hojatxona uchun ham ishlatiladi. Bu holat suv resurslari ifloslanishiga sabab bo‘lmoqda. OAVda ham shunday holatlar haqida ko‘plab maqola va xabarlar chop etilyapti.

Suvni asrash shaxsiy tashabbusdan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarida suv masalalari haqida ochiq, tahliliy va konstruktiv yondashuvdagi maqolalar ko‘paymas ekan, fuqarolar ushbu muammo yuzasidan jiddiy qarashga ega bo‘lmay qolaveradi. Suv tanqisligiga qarshi kurash nafaqat texnologiyada, balki axborot maydonidagi faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu faoliyat jarayonida esa radio va telekanallarda “Suv haqida gaplashamiz” nomli maxsus ko‘rsatuv tashkil etilib, u orqali joylardagi holatni muntazam yoritish, bosma nashrlarda doimiy ruhn orqali hududlardan maqolalar berib borish, ijtimoiy tarmoqlarda muhokama, munozaralar tashkil etish maqsadga muvofiq. Qolaversa, suv tanqisligi bo‘yicha maxsus veb loyihalarni yo‘lga qo‘yish, xarita va infografika orqali aholi xabardorligini oshirish uchun suv resurslariga oid ma‘lumotlar bazasini yaratish zarur.

Jamoatchilik eshituvlari OAV ishtirokida tashkil etilishi joylardagi vaziyatni mas‘ullarning o‘zidan eshitish imkonini bersa, ekojurnalistika bo‘yicha maxsus ta‘lim kurslari joriy etilib, unda OAV va blogerlarning bilim va malakalarini oshirish samara beradi.

Suv masalasidagi ochiqlik insoniyat kelajagining asosidir. Jurnalist o‘z vaqtida haqiqatni yoritasa, jamoat ongi o‘zgaradi. Suv inqirozidan qo‘rsak, suv asralishiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Bugun qo‘yilgan to‘g‘ri qadam ertangi hayotning kafolatidir.